

2 – ilova  
Tarif (QQS va Maxsus ustama haq bilan)

1-sonli shartnoma  
«Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun  
«27»-январь 2022y.

Ushbu shartnoma «Farg'ona suv ta'minoti» M.Ch.J Quva tuman bo'limi, keyingi o'rnlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi Davidov Tolibjon Adxamovich shaxsida, bir tomondan va keyingi o'rnlarda «Iste'molchi» deb yuritiluvchi Quva tumani MTB MTB ustav asosida ish olib boruvchi direktor J.Turgunov ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

I.Shartnoma predmeti

1.1. 2022yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik tashkilotlari (bundan buyon matinda II guruh «Iste'molchi» lari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish narx bo'yicha 11650 m3ni:

1m3 ichimlik suv uchun narxi 1343.48 so'm, (+QQS 15 %) 201.52 so'm, Jami \_1545 so'm (maxsus ustama xaq)ni;

1 m3 oqova suv uchun 1343.48 so'm (+QQS 15%), 201 so'm 52 tiyin Jami 1545so'm 00 tiyin (maxsus ustama xaq)ni tashkil qilmoqda.

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 17 999 976,15 so'mni tashkil qildi.(O'n yeti million to'qqiz yuz to'qson to'qiz ming to'qiz yuz ytmish olti so'm so'm 15 tiyin)

Shu jumladan, budget mablag'laridan 17999976.15 so'm, budgetdan tashqari mablag'laridan \_ - so'm budgetdan tashqari mablag'lardan to'lanishi ko'zda tutilgan.

II guruh iste'molchilari Qoidalarda belgilangan tarzda “Ta'minotchi” tomonidan taqdim qilingan hisobvaraq-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni sifatlari ichimlik suv bilan ta'minlash va «Iste'molchi»dan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» «Ta'minotchi»ga ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni xar oyning 10 sanasigacha 100 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari”ga (keyinchalik matnda – Qoidalar deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi 1m3 ichimlik suv uchun \_\_ so'm, 1m3 oqova suv xizmati uchun \_\_ so'm bilan birga «Ta'minotchi» tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ularish uchun ruxsat etuvchi hujjalarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

II. Umumiy qoidalar

2.1. «Iste'molchi» «Ta'minotchi» tashkiloti ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ularishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh va toifali iste'molchilariga mansub bo'lsa, «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish priborini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy

hisoblanadi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanimishiga quyidagi istisno holatlarda yo'l qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'Imaganda, ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtida (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalilanadi.

2.6. Suvni hisobga olish priborlari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilib plombalanadi, hamda "Ta'minotchi" tomonidan plombalanishi lozimi. Shuningdek, ichimlik suvini hisobga olish priborini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. «Iste'molchi»ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'Ichash priborining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda «Iste'molchi» bilan kelishiladi. Hisoblash pribori uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdorida kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'Ichash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash priborining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'matilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash priborlarini ishga tushirish, hisoblash priborlarini almashirish, yangi subiste'molchilarining ulanishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Ta'minotchi» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular «Iste'molchi»ning so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. «Ta'minotchi»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi «Ta'minotchi» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgargan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnomalar o'z kuchini saqlab qoladi va «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarini amalga oshirishi shart.

2.11. Quyidagilar «Ta'minotchi» tashkilotlari bilan «Iste'molchi»lar shu jumladan, xususiy uyjoy mulkdorlari shirkatlari o'rtasidagi, ichimlik va oqova suv xizmatlari tarmoqlari, inshootlari xamda qurilmalariga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalinish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) ichimlik suv iste'moli uchun — tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, «Iste'molchi»ning ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova xizmati uchun — «Iste'molchi» oqova tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral oqova tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi oqova qudug'i (kamerasi) magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq «Ta'minotchi» tashkiloti oqova tarmog'inining bir qismi hisoblananib, unga tutashtiruvchi foydalinish chizig'i esa «Iste'molchi»ning mablag'ilarini hisobidan amalga oshiriladi.

### III. Taraflarning huquq va majburiyatları

3.1. «Iste'molchi» ning huquqlari:

3.1.1. Tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun «Ta'minotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnomalarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

3.1.2. «Ta'minotchi» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'moti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarini to'liq amalga oshirgan holda

shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

3.1.3. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarining holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

3.1.4. «Ta'minotchi» tashkilotidan ichimlik va oqova suv xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlari tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

3.1.5. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 saat mobaynidagi «Ta'minotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlarni olish;

3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatlar:

3.2.1. Oqava tarmog'iда avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarining but saqlanganligi, ishga yaroqligiga va normal texnik holatda bo'lishini ta'minlash;

3.2.2. Iste'molchiga qarashli sanitariya asboblari, oqava tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambanering yo'qligi, reviziyalarning zinch yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli iste'molchining oqava tarmoqlarida yoki «Ta'minotchi» tashkilotida, ichimlik suv va oqovaning tashqi tarmoqlarida avariya (tqilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. «Ta'minotchi» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalilanidigan suvni hisobga olish pribori, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfinlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarining butligi va saqlash;

3.2.4. «Ta'minotchi» tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik;

3.2.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalananish to'xtatilganda «Iste'molchi» 24 saat mobaynidagi «Ta'minotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfinlarni plombalash uchun «Ta'minotchi» tashkiloti vakilini chaqirish;

3.2.6. «Ta'minotchi» bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni «Ta'minotchi»ga kechikmagan holda taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish.

3.3. «Ta'minotchi» ning huquqlari:

3.3.1. «Ta'minotchi» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a) «Iste'molchi»ga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqsiz bo'lganda va «Ta'minotchi» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanshdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «Ta'minotchi» tashkiloti talablari iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Ta'minotchi» tashkilot mansabdon shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzelgi, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko'rsatkichlarni qayd etish, plombalarini o'matish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va «Ta'minotchi» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asossov ravishda kiritilmaganda;

v) «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek, yangi iste'molchilarini ulash ishlari amalga oshirilganda;

g) «Iste'molchi» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

d) «Iste'molchi» tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda

- haq to‘lanmaganda;
- ye) «Iste’molchi»ning tasarrufida bo‘lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga «Ta’minotchi» tashkilotidan ularish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomaga olgan subabonentlarning tegishli tartibda ularishi rad etilganda;
- yo) «Iste’molchi» tomonidan shartnoma shartlari bajarilnaganda va u oqizilayotgan oqova suvlari miqdori va tarkibi bo‘yicha shartlarga rioya qilmaganda.
- 3.3.9. «Ta’minotchi» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to‘liq yoki qisman to‘xtatishga haqli:
- a) «Ta’minotchi» tashkilotining elektr ta’minoti to‘xtatilganda;
  - b) Tabiyi ofatlar ro‘y berganda;
  - v) Avariya holatlarda;
- g) Yong‘in chiqqan joylarga suv uzatishni ko‘paytirishga zarurat tug‘ilganda.
- 3.4. «Ta’minotchi»ning majburiyatlar:
- 3.4.1. Suv ta’minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;
- 3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;
- 3.4.3. Tarmoqdagagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;
- 3.4.4. Iste’molchilarning ichimlik va oqova suv tizimlariga ulangan ichimlik suv va oqava tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkillashtirishda iste’molchilarga amaliy yordam ko‘rsatish;
- 3.4.5. Iste’molchilar tomonidan sunvi behuda sarfining olidini olish, sanoat korxonalari va ularga tenglashtirilgan korxonalarda suv berish bo‘yicha belgilangan limitlarga rioya qilinayotganini muntazam ravishda nazorat qilish;
- 3.4.6. Suv iste’moli belgilangan me’yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «Ta’minotchi» tashkilotlariga belgilangan tariflarga nisbatan orttiriluvchi 10,0 koeffitsiyentni qo‘llash;
- 3.4.7. Oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalarning sifati monitoringini ta’minlash;
- 3.4.8. Shartnoma shartlariga muvofiq o‘z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda iste’molchiga penya hisoblash;
- 3.4.9. Iste’molchilarning shartnoma shartlariga rioya etishmagani masalasi bo‘yicha sud organlariga murojaat qilish;
- 3.4.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to‘lovlarining holati, qarzlarning yo‘qligi haqidagi ma‘lumotlarni iste’molchilarga bepul taqdim etish;
- 3.4.11. Ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflaridagi o‘zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yordamida iste’molchilarni xabardor qilish;
- 3.4.12. Ichimlik va oqava suv xizmatlarini ko‘rsatishda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan rejali to‘xtatish va uzilishlar haqida iste’molchilar uzilishlar boshlangungacha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish.
- IV. Taraflarning javobgarligi
- 4.1. «Ta’minotchi» ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, «Iste’molchi» esa yetkazilgan haqiqiy zarar o‘rnini qoplashi shart.
- 4.2. «Iste’molchi» quyidagilar uchun javobgardir:
- a) Ichimlik sunvi hisobga olish pribori plombalari butligi, aylanish chizig‘i jo‘mragi, gidrant va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismalarining hududidi va tasarrufida bo‘lgan plombalangan hisoblash qurilmalarining butun saqlanishi uchun;
  - b) Suv tarmoqlariga o‘z boshimcha ularib olish, sovuq sunvi hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo‘l qo‘yish hamda suv hisoblash priborlaridagi ko‘rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holatlari uchun;
  - v) O‘zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariylar bo‘lgan holatlarda;

g) Drenat tizmi mavjud bo‘lsa «Iste’molchi» hududida joylashgan oqova tarmog‘iga yomg‘ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo‘l qo‘ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda «Ta’mintonchi» o‘rnatalgan tartibda dalolatnomada tuzadi va ushbu dalolatnomada «Iste’molchi»ning mas’uliyat va javobgarlik chorasi belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

d) Qonunchilikda o‘rnatalgan boshqa hollarda.

4.3. «Ta’mintonchi» quyidagi hollarda javobgardir:

a) Amldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq va qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa hollarda;

b) «Iste’molchi»larga ichimlik va oqova suv xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo‘lgan texnik shartlarni o‘z vaqtida va ishonchli taqdirm qilinishi uchun;

v) «Iste’molchi»ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma’naviy zarar uchun qonunchilikda o‘rnatalgan tartib va miqdorda qoplash;

g) Sharhnomalar shartlari va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik.

V. Suv ta’minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to‘lov larning tartibi

5.1. Ichimlik va oqova suv ta’minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash pribori mavjud bo‘lganda, hisobga olish priborining ko‘rsatkichlariga muvofiq amalidagi tariflar bo‘yicha QSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2 «Iste’molchi» ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish priborlari mavjud bo‘lganda oxirgi uch oyning o‘rtacha sarfi bo‘yicha keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to‘lashni amalga oshirishlari lozim.

5.3 To‘lovnинг sharhnomada belgilanganidan kechiktirilgan har bir kuni uchun iste’molchi 0,4 foiz penya to‘laydi. Ammo bu ko‘rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.4 «Iste’molchi» keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to‘lovlarini amalga oshirmsalar, iste’molchilarni yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o‘tgandan keyin qarzlarни qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iste’molchilarni ichimlik suv ta’minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo‘yish yo‘li bilan undirish choralarini ko‘radi.

Bunday hollarda yong‘indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to‘liq «Iste’molchi» zimmasiga yuklatiladi. Suv ta’minoti va oqova suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo‘yilgan hollarda qayta ulashda «Iste’molchi»dan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o‘n) barobar miqdorida to‘lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag‘larni o‘tkazish orgali undiriladi;

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvning miqdori, ichimlik suv tarmog‘idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta’minoti mavjud bo‘lgan hollarda, iste’mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 2,0 koeffitsiyenti qo‘llaniladi. «Iste’molchi»ning o‘zida suv ta’minotining qurilmalari mavjud bo‘lsa, oqova suvlarning miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsulorligiga (o‘rnatalgan va ro‘yxatga olingan hisoblash priborlarining ko‘rsatkichlariga) ko‘paytiriladi. Ichki suv ta’minoti tizimi «Iste’molchi»ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog‘liq bo‘imasligi lozim.

5.6. Ob‘ekt egasi avtonom suv ta’minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo‘lgan holatlarda «Ta’mintonchi» tashkiloti bilan sharhnomada tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob‘ektlaridan maxsus suv olish yoki iste’mol qilish uchun ruxsatnomani qo‘srimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta’minotining xususiy avtonom manbai (arterzian skvajinasи, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va boshqalar) mavjud bo‘lganda oqova tizimiga oqova suvlarni oqizish uchun to‘lovlar o‘rnatalgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o‘rnatalgan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan hisoblash priborining ko‘rsatkichlarasi asosida amalga oshiriladi. «Iste’molchi»ga qarashli bo‘lgan avtonom suv ta’minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta’minoti tizimi bilan tutashmagan bo‘lishi shart.

VI. Aloxiда sharhlari

- 6.1. Ob'ekt egasi o'zgarganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarini to'lab, bu haqda "Ta'minotchi" tashkiloti bilan dalolatnama imzolashi shart. "Iste'molchi" chiqib ketgach suvni hisobga olish pribori, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.
- 6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quydag'i formula asosida hisoblanadi:

bunda:  $M = 0.60 \text{ ga teng bo'lgan zulfin orqali suv sarfi koeffitsiyenti}$ ;  
F – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha)  $m^2$  ;  
g – 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;  
N – suvning metrlardagi bosimi;

t – vaqt- 24 soat, sekundlarda.

Quyidagi holatlarda yuqoridaagi formula asosida hisoblanadi:

6.2.1. «Iste'molchi»da suv o'lhash pribori va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.2.2. Suv o'lhash pribori yoki moslamasi «Ta'minotchi»da ro'yxatdan o'tmagan taqdirda;

6.2.3. Ichimlik suvi bilan o'zboshimchalik bilan foydalanganda;

6.2.4. Suv o'lhash pribori, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi so'nggi tuzilgan dalolatnama muddatidan yangi suv o'lhash pribori o'rnatalgan (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

6.2.5. «Ta'minotchi»ning suv o'lhash bo'g'inini diametiri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan va bajarilmagan holatlarda;

6.2.6. Suv o'lhash priborining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga (plombaga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.3. Ichimlik va oqova suv tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrant va quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ulanib olingen va foydalanilgan holatlар aniqlanganda «Ta'minotchi» tomonidan dalolatnama tuziladi va shu tuzilgan dalolatnama o'zboshimchalik bilan ulanib olgan shaxsnинг javobgarligi darajasini aniqlash va «Ta'minotchi»ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:

- to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnama sanasidan o'zboshimchalik bilan ulanib olingen kun sanasigacha yoki yangi suv o'lhash pribori o'matilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha yoki o'zboshimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

- o'zboshimchalik bilan ulanib olingen sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar «Ta'minotchi» balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'limsa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyxalashfirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda, «Ta'minotchi» tomonidan suv uzaqish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ldi.

6.5. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suvni tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda «Ta'minotchi» tomonidan xokim qarori va kadast hujjatlari hamda shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar «Ta'minotchi» tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar «Iste'molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptisiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda «Ta'minotchi» kechiktirilgan to'loving har bir kuni uchun 0,4 foiz penya yozadi va uning umumiy qiymati

asosiy to‘loving 50%dan oshmasligi lozim.

6.7. Oqova tizimiga ruxsat etilmagan yomg‘ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini «Iste‘molchi»lar tomonidan tashlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari” hamda ifoslantiruvchi moddalarining O‘zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun «Iste‘molchi»larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koefitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo‘yicha me‘yorlar bilan belgilangan oqizishning yo‘l qo‘yiladigan cheklangan miqdoridan ortiqcha oqova suvlar va ifoslantiruvchi moddalarining chiqarish taqiqlanadi.

6.9. Ifoslantiruvchi moddalarini normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to‘lovlarini hisoblab yozish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 oktabrdagi “Tabiatni muhofaza qilishni ta‘minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda ifoslantiruvchi moddalarining O‘zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to‘lovlarini hisoblash tartibi asosida amalga oshiriladi, debitor qarz dorlik to‘lanmagan taqdirda «Iste‘molchi» oqova tarmoqlaridan uzbiz qo‘yiladi.

6.11. Hisob-kitobning noto‘g‘ri qilinganligi (tariflarning noto‘g‘ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to‘g‘risida «Iste‘molchi» yoziladigan e’tiroznomha to‘lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Ta‘minotchi»ga taqdim etilishi kerak. E’tiroznomha «Iste‘molchi»ni to‘lov talabnomasi va xujjatida ko‘rsatilgan summani to‘liq va belgilangan muddatda to‘lashdan ozod qilmaydi.

## VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o‘rtasida shartnomha yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo‘li bilan hal qilinadi.

Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik «Iste‘molchi» davlat ro‘yxatidan o‘tgan sud organlarida ko‘rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

## VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnomha bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo‘lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong‘in, sel, do‘l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkuz shartnomaga bo‘yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo‘lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarini ko‘rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnomha shartlarini bajarishga uch oydan ko‘p muddat to‘sinqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

## IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnomaga ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2 Shartnomaga g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 27.01.2022 yildan 31.12.202 yilgacha amal qiladi.

## X. Taraflarning yuridik manzili:

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: HJ54735704


«TA'MINOTCHI»  
Fargona suv taminoti MCHJ

Quva tuman bo'limi  
Manzil: Fahriylar ko'chasi 30-a uy  
Tel: 73-315-51-53  
P/S:22638000900194935457  
Ipoteka bank MFO-00544  
ИНН-200144908 OKNX 90213

«ISTE'MOLCHI»  
Кува туман МТБ  
Манзил: Кува т А. Яссавий  
Тел 99 873 315-05-93  
x\rp:100022860302187091100251047  
Банк Марказий Банк Тошкент шахар  
МФО 00014 ИНН:201122919  
Молия Вазирлиги Фазначилиги  
x\rp 234020003001000011010  
ИНН 305153375 ОКОНХ 92400

Rahbar:

I. Davidov



Rahbar

J.Turg'ubov



Yuridik xulosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy asosi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan.

Huquqshunos: \_\_\_\_\_ « \_\_\_\_ » 202 \_\_\_\_ yil.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

SZ5370077051

**1. Loyihaning turi Shartnoma**

**2. Loyihaning nomi** Maxsulot sotish va sotib olish to‘g‘risida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Quva tumani Maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan 2022-yil, 27-yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil, 27-yanvar kuni dasturga kiritilgan.

**4. Loyiha bo‘yicha taklif:**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy natijalariga ko‘ra ekspertizadan o‘tkazish

**XULOSA:**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**

**X.X.Mannobov**

